

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani

31-umumta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Pardayeva Samovar Panjiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish hamda darslarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlariga ajratish, o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar ochib beriladi. Tarix darslarida "Pisa " testlaridan foydalanish, "Krossvord" uslubi, "Xaritalar ustida ishlash" va "Raqamli tarix" uslublari ushbu maqola orqali keng va atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, raqamli tarix, PISA, didaktik shartlar, xarita, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, innovatsion usullar.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab

chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, tarix darslarida O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Osiyo mamlakatlari madaniyati", "Yevropada o'rta asr shaharlari", "Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish - o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun

dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi.

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

6. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi", «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat -e'tibor birgina bolaga

qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi. " Didora-Doro I . qadimgi Fors shoxi"). "Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

F.Sh.Aqchayev. Tarix fanini oqitishda innovatsion texnologiyalar. Oquv-uslubiy qo`llanma.Jizzax-2014.8-b.

A.Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –P.401.

I.S.Joldasov. Tarixni o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. "Science and Education" Scientific Journal. August 2020 / Volume 1 Issue 5.196-b.

Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.